



№ 2/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

АГПИ
Научный вестник



ANDIJON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI Ilmiy xabarnomasi

№ 2 2026 **aprel**

Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2022-yil 25-oktyabrda
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan
ISSN 2181-4309

O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2024-yil 8-maydagi №354-
sonli qarori bilan **Pedagogika fanlari** bo'yicha Oliy
attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga
kiritilgan.

Xalqaro miqyosda faoliyat yurituvchi yirik
ilmiy ma'lumotlar **CrossRef** bazasida
indeksialanadi.

★ Ilmiy maqolalar O'zbek, Rus, Ingliz tillarida
<https://eduservis.uz> sayti orqali qabul qilinadi.

Murojaat uchun:

Telegram: ADPIilmiyxabarnoma_bot

Electron manzil: eduservis@gmail.com

2/2

BOSH MUHARRIR:

B.M. Rasulov- tarix fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul muharrir:

B.A. Sirojiddinov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

TAHRIR KENGASHI

S.Z. Zaynobiddinov- O'zRFA akademigi

I.R. Asqarov- kimyo fanlari doktori, professor

Sh.X. Yo'lchiyev- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor

A.E. Zaynobiddinov- biologiya fanlari doktori, professor

B.X. Amanov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

A.A. Egamberdiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), professor

M.V. Xalimova- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sh.J. Yusupova - pedagogika fanlari doktori, professor

Z.E. Azimova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.B. Artiqova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

V.A. Qodirov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

N.J. Abdullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.A. Tojiboyeva - filologiya fanlari doktori, professor

Sh.A. Xaitov- tarix fanlari doktori (DSc), professor

A.G. G'aniyev- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

M.K. Pozilov -biologiya fanlari doktori (DSc), professor

T.T. Kaziyeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

U.A. Usmanova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

D.T. Samatov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

A.Xakimov- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

M.T.Parpiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.A. Zapparov- texnika fanlari nomzodi, professor

U.A. Saliyev- tarix fanlari nomzodi, professor

M.I. Israil- filologiya fanlari doktori, professor

L.A. Muxammadjonova- falsafa fanlari nomzodi, professor

Sh.A. Xasanov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

X.T. Komilova pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

M.Sh. Alimova - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Q. Ibaybullayev- falsafa fanlari nomzodi, dotsent

D.T. Samatov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D'.M. Muxtarov- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

S.N. Yusupova- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

B.M. Do'monov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E.A. Tajimirzayev- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

K.S. Karimov - tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.A. Yuldashyev- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.J. Abduraxmonova - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.M. Muydinova- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

J.B. Qoraboyev- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

N.T. Mo'yidinov- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Sobirova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

E.B. Abdullayev- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

G'.Sh. G'ulomov- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

L.S. Yunusov - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

N.S. Yaqubov- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent

M.I. O'rinboyev- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

U.Sh. Uktamov - geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

M.G'. Ergasheva - tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

Muharrirlar:

O.Karimov,

U.Malikova,

B. Mashrabova.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Artikova M.B., Turaboyeva M.R. Ta'lim xoldingi dasturiy ta'minoti: bilimni targ'ib qilish va ta'lim xizmatlari taklifi sifatida	4
Abdullayeva N.J., Madmarova G.Q. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy-pedagogik ijodkorlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	9
Hasanov Sh.A. Analitik tafakkur – talabalarda fikrlash dinamikasi va intellektual rivojlanishning asosiy kognitiv omili sifatida	15
Shabdullayeva L.O. Malakaviy amaliyot jarayonida talabalarda raqamli ta'lim muhitida mustaqil ta'limni qo'llay olish mexanizmlari	20
Agzamova N.O. Xorijiy tillarni o'qitishda pedagogning qarashlari va o'qitish metodlariga bu qarashlarning ta'siri	30
Matmusayev T.M. Avlodlar nazariyasi va yoshlar ijtimoiylashuvida qadriyatlar uzviyligi	35
Axmedova N.D., Urinbayeva B.Z. Bo'lajak tarbiyachilarning bolalarda hissiy-ma'naviy sifatlarni rivojlantirish metodikasi	42
Alimov J.A., Shermuhammedov M. Zamonaviy sharoitda stol tennis orqali talabalarning jismoniy faolligini oshirish	47
Axunov U.R. Kinestetik kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlari va ularni ta'lim amaliyotida qo'llash	51
Shabdullayeva L.O. Talabalarda mustaqil ta'limni shakllanganlik mezonlari ularning baholash usullari va vositalari	55
Karimova M.M. Ta'lim-tarbiyada qo'shiqning o'rni	62
Azimova Z.E., Otabayeva Z.G'. Klasterli yondashuv asosida talabalar jamoasida hamkorlik madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari	67
Hasanov Sh.A. Badiiy asar tahlili kompetensiyasi - filolog talabalarda kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishning didaktik drayveri sifatida	71
Ismonov X.B., Azimjonova U.Z. Muhandislik grafikasi jarayonlarida aksometrik proyeksiyalar va ularning ahamiyati	78
Maxmudov A.O. Chizmachilik mashg'ulotlarida interfaol va grafik metodlar orqali o'quvchilarning ijodiy va fozoviy tafakkurini rivojlantirish	84
Abduraxmonova D.Sh. Bo'lajak "tarbiya" fani o'qituvchilarini individual yondashuv asosida o'quvchilarni baholash va rag'batlantirish faoliyatiga tayyorlashning pedagogik, psixologik va amaliy asoslari	89
Bekmuratov N.A., Odiljonov U.U. Tasviriy san'at o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari	93
Madaminova G.G. Umumta'lim maktablarida fan to'garaklarini tashkil etishning nazariy-huquqiy asoslari va amaliy muammolari	100
Mashrabova B.N. Irony and hyperbole in the dialogue of abdujjon: a stylistic analysis of cinematic language	106
Nishonov N.A. O'yin faoliyatining psixosotsial va pedagogik aspektlari	111
Ubaydullayev S.Q., Tursunov F.E., Qo'ychiyeva M.L. Texnologiya fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalarini ahamiyati	115
Uraimov S.R., Xakimjonov M.X. Workout metodikasining xorijiy mamlakatlardagi qo'llanilishi va uning o'zbekiston sharoitida rivojlantirish	120
Yoqubjonov N.G'. Futbol orqali talabalarda jamoaviylik va yetakchilik sifatlarini shakllantirish	126
Jo'rayeva D.I. Musiqa madaniyati darslarida o'zbek xalq kuy-qo'shiqlaridan foydalanish metodikasi	130

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

Rasulov B.M., Abduraxmanov A.A. Yangi O'zbekistonda sud huquq tizimidagi islohatlar	135
Raximova Z.X. Ijtimoiy tarmoqlar sharoitida pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish zamonaviy ijtimoiy ehtiyoj sifatida	142
Uzaqova N.M. Oliy ta'limda inklyuziv ta'limning rivojlanishi: yutuq va kamchiliklari	149
Rahmatullayeva G.M., Dripova A.M. Talabalarda milliy madaniyatga nisbatan milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish tajribasi va samaradorligini aniqlash	153
Mutallibjonov U.I. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurishda huquqiy tarbiyaning o'rni	157

ANIQ VA TABIIY FANLAR

Asqarov I.R., Isayev Yu.T., Rustamov S.A., Mirzaabdullayev B.A. Xalq tabobati usullaridan foydalanilgan holda talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish mavzusini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	162
Абдурахимов А., Нишанов Х., Эсонбоева Ш. Основные характеристики средней множественности заряженных частиц в физике высоких энергий	169
Umarov A.V. Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida mediakompetentlik tushunchasining nazariy-metodologik asoslari	173
Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х. Цитогенетическое изучение мутагенной активности в соматических клетках экспериментальных животных после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты	179
Гуломов Г.Ш., Маткаримова М.Х. Исследование количества и состава иммунокомпетентных клеток после воздействия переменного магнитного поля с модуляцией амплитуды средней частоты	183
Mamadaliyev B.K. Sun'iy intellektga asoslangan ta'limiy dasturlar orqali bo'lajak o'qituvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish	187
Jamoldinova D.A. Mantiqiy masalalar ta'limida milliy va xalqaro yondashuvlar uyg'unligi	192
Abfazova K.S. Uzlüksiz ta'lim tizimida matematika fanini modulli o'qitish metodikasi	196

MANTIQUIY MASALALAR TA'LIMIDA MILLIY VA XALQARO YONDASHUVLAR UYG'UNLIGI

Jamoldinova Dildora Alijon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya.

Mazkur maqolada mantiqiy masalalar ta'limining zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyati milliy hamda xalqaro pedagogik yondashuvlar uyg'unligi asosida ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida mantiqiy masalalarning o'quvchilarda mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishdagi didaktik imkoniyatlari yoritiladi. Milliy yondashuvlarning o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, madaniy muhit hamda an'anaviy pedagogik tajribaga tayanishi, xalqaro yondashuvlarning esa kompetensiyaviy yondashuv, real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar va raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga yo'naltirilgani asoslab beriladi. Shuningdek, PISA va TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlari doirasida mantiqiy masalalar ta'limining ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari mantiqiy masalalar ta'limida milliy qadriyatlarni saqlagan holda xalqaro ilg'or tajribalarni integratsiyalash ta'lim samaradorligini oshirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar:

mantiqiy masalalar, milliy yondashuv, xalqaro yondashuv, kompetensiyaviy ta'lim, boshlang'ich ta'lim, mantiqiy fikrlash, global kompetensiyalar.

Аннотация.

В статье рассматривается роль и значение обучения логическим задачам в современной системе образования с позиции гармоничного сочетания национальных и международных педагогических подходов. В ходе исследования раскрываются дидактические возможности логических задач в развитии у обучающихся самостоятельного критического и творческого мышления. Обосновывается, что национальные подходы опираются на возрастные и психологические особенности учащихся, культурную среду и традиционный педагогический опыт, тогда как международные подходы ориентированы на компетентностный подход, решение задач в реальных жизненных ситуациях и использование цифровых образовательных технологий. Особое внимание уделяется значению логических задач в контексте международных оценочных программ PISA и TIMSS. Результаты исследования подтверждают, что интеграция передового международного опыта с национальными образовательными традициями способствует повышению эффективности обучения логическим задачам и развитию глобальных компетенций обучающихся.

Ключевые слова:

логические задачи, национальный подход, международный опыт, компетентностный подход, начальное образование, логическое мышление, глобальные компетенции.

Abstract.

This article discusses the role and significance of teaching logical problems in the modern education system from the perspective of integrating national and international pedagogical approaches. The study highlights the didactic potential of logical problems in developing students' independent, critical and creative thinking skills. It is substantiated that national approaches are based on learners' age and psychological characteristics, cultural context and traditional pedagogical experience, while international approaches emphasize competency-based education, real-life problem-solving tasks, and the use of digital educational technologies. Particular attention is given to the importance of logical problem-solving within international assessment frameworks such as PISA and TIMSS. The findings demonstrate that the integration of advanced international practices with national educational values enhances the effectiveness of logical problem instruction and contributes to the development of students' global competencies.

Keywords:

logical problems, national approach, international approach, competency-based education, primary education, logical thinking, global competencies.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi globallashuv, raqamli transformatsiya va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlar sharoitida tubdan yangilanib bormoqda. Ushbu

jarayonda o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish hamda muammoli vaziyatlarda samarali qaror qabul qilish kabi intellektual kompetensiyalarni shakllantirish ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida mantiqiy masalalar orqali o'quvchilarning kognitiv rivojlanishini ta'minlash ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Mantiqiy masalalar ta'limi nafaqat matematik bilimlarni mustahkamlash, balki o'quvchilarning tafakkur madaniyati, muammoni ko'ra bilish va ijodiy yondashuvlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan qaraganda, mantiqiy masalalarni o'qitishda qo'llanilayotgan metodik yondashuvlar milliy ta'lim an'analari va xalqaro pedagogik tajribalar uyg'unligida takomillashtirilishi zarur. Xususan, xalqaro baholash dasturlari doirasida mantiqiy fikrlash, funksional savodxonlik va real hayotiy muammolarni hal etishga yo'naltirilgan topshiriqlarning ustuvorligi ushbu masalaning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

O'zbekiston ta'lim tizimida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, yangi avlod darsliklarini joriy etish, kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quv dasturlarini yangilash hamda xalqaro ta'lim standartlariga moslashuv jarayonlari mantiqiy masalalar ta'limiga yangicha nazar bilan qarashni taqazo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «ta'lim-tarbiya tizimini zamon talablari asosida rivojlantirmasdan turib, yangi O'zbekistonni barpo etish mumkin emas» [1]. Mazkur fikr mantiqiy masalalar ta'limida ham milliy qadriyatlar va ilg'or xalqaro tajribalarni integratsiyalash zarurligini asoslaydi.

Milliy yondashuvlar, asosan, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, madaniy muhit, milliy mentalitet hamda an'anaviy didaktik tajribaga tayanadi. Xalqaro yondashuvlar esa muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar, tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi strategiyalar, fanlararo integratsiya va raqamli ta'lim texnologiyalaridan keng foydalanishni nazarda tutadi. Ushbu ikki yondashuvning o'zaro uyg'unlashuvi mantiqiy masalalar ta'limining samaradorligini oshirishga, o'quvchilarning global kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu munasabat bilan, mazkur maqolada mantiqiy masalalar ta'limida milliy va xalqaro yondashuvlarning nazariy-metodik asoslari tahlil qilinadi, ularning o'zaro uyg'unlashuv imkoniyatlari yoritiladi hamda ta'lim amaliyotiga tatbiq etish bo'yicha ilmiy xulosalar ilgari suriladi.

Asosiy qism. Mantiqiy masalalar ta'lim jarayonida o'quvchilarning tafakkur faoliyatini faollashtiruvchi, bilish jarayonini ongli va maqsadli tashkil etishga xizmat qiluvchi muhim didaktik vosita hisoblanadi. Pedagogik-psixologik tadqiqotlarda mantiqiy masalalar orqali o'quvchilarda tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashirish va xulosa chiqarish kabi intellektual amallar izchil shakllanishi ta'kidlanadi [2]. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida ushbu masalalar o'quvchilarning bilishga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda keyingi ta'lim bosqichlari uchun mustahkam kognitiv poydevor yaratadi.

Zamonaviy ta'lim kompetensiyalarida mantiqiy masalalar kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish vositasi sifatida talqin etiladi. Xalqaro tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mantiqiy masalalar bilan muntazam ishlash o'quvchilarning real hayotiy muammolarni hal etish qobiliyatini sezilarli darajada oshiradi. Shu bois, mantiqiy masalalar ta'lim ini metodik jihatdan takomillashtirish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida nomoyon bo'lmoqda.

Milliy yondashuvlar mantiqiy masalalarni o'qitishda o'quvchilarning yosh, psixologik va individual xususiyatlarini hisobga olish, ta'lim mazmunini milliy qadriyatlar va an'anaviy pedagogik tajriba sosida tashkil etishga tayanadi. O'zbekiston ta'lim tizimida mantiqiy masalalar ko'proq ketma-ketlik, qiyoslash, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashga yo'naltirilgan topshiriqlar shaklida beriladi [3].

Yangi avlod darsliklarida mantiqiy masalalarning mazmuni o'quvchilarning kundalik hayoti, milliy madaniyat, ijtimoiy muhit bilan uzviy bog'langan bo'lib, bu holat o'quvchilarning topshiriqlarni anglash darajasini oshiradi. Shu bilan birga, milliy yondashuvlarda ko'rgazmalilik, og'zaki mantiqiy mashqlar va bosqichma-bosqich murakkablashtirish tamoyillari ustuvor hisoblanadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarda mantiqiy fikrlashning tizimli shakllantirishga xizmat qiladi.

Biroq, milliy tajribada ayrim hollarda mantiqiy masalalar reproduktiv xarakterga ega bo'lib, o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini yetarli darajada rag'batlantirmasligi kuzatiladi. Bu esa xalqaro yondashuvlar bilan integratsiyani zarur qiladi.

Xalqaro pedagogik tajribada mantiqiy masalalar ta'lim i muammoli vaziyatlar, real hayotiy kontekstlar va fanlararo integratsiya asosida tashkil etiladi. Xususan, PISA va TIMSS tadqiqotlarida qo'llanilayotgan topshiriqlar o'quvchilardan nafaqat bilim, balki ularni amaliy vaziyatlarda qo'llay olish, tahliliy va tanqidiy fikrlashni talab etadi.

Xalqaro yondashuvlarning muhim jihatlaridan biri – ochiq javobli masalalar, bir nechta yechimga ega topshiriqlar va refleksiv fikrlashga yo'naltirilgan savollarning keng qo'llanishidir. Shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida interaktiv mantiqiy masalalardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi [4].

Mazkur yondashuvlar o'quvchilarning global kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilsada, ularni to'liq va moslashtirilmasdan tatbiq etish milliy ta'lim muhitida qiyinchiliklar keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, xalqaro tajribani milliy ta'lim tizimi sharoitlariga mos holda joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy va xalqaro yondashuvlarning uyg'unligi mantiqiy masalalar ta'lim ini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi. Bunda milliy qadriyatlar, o'quvchilarning psixologik xususiyatlari va til muhiti saqlab qolinib, xalqaro tajribadagi innovatsion metodlar bilan boyitiladi. Masalan, milliy mazmunga ega bo'lgan mantiqiy masalalarni muammoli vaziyatlar asosida qayta ishlab chiqish o'quvchilarning ijodiy fikrlashini kuchaytiradi.

Prezident Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «ta'lim tizimida sifat va natijadorlikni oshirish, xalqaro tajribani milliy an'analar bilan uyg'unlashtirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir» [5]. Ushbu fikr mantiqiy masalalar ta'lim iga ham to'liq tatbiq etilishi mumkin.

Uyg'un yondashuv asosida ishlab chiqilgan mantiqiy masalalar o'quvchilarning nafaqat mantiqiy fikrlashini, balki kommunikativ, axborot va ijtimoiy kompetensiyalarini ham rivojlantiradi. Natijada ta'lim jarayonining samaradorligi oshib, o'quvchilar xalqaro baholash dasturlarida yuqori natijalarga erishish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xulosa. Mazkur maqolada mantiqiy masalalar ta'lim ining zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyati milliy hamda xalqaro pedagogik yondashuvlar uyg'unligi nuqtayi nazaridan tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida mantiqiy masalalar o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, muammoli vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish hamda ijodiy yondashuvni shakllantiruvchi muhim didaktik vosita ekanligi ilmiy asoslandi.

Tahlillar shuni ko'rsatidiki, milliy yondashuvlar mantiqiy masalalar ta'lim ida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish, ta'lim mazmunini milliy qadriyatlar va madaniy muhit bilan uyg'unlashtirish orqali samarali natijalarni ta'minlaydi. Shu bilan birga, xalqaro yondashuvlar mantiqiy masalalarni real hayotiy vaziyatlar, muammoli topshiriqlar va kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish orqali o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Milliy va xalqaro yondashuvlarning o'zaro uyg'unlashuvi mantiqiy masalalar ta'lim ini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi. Bunda xalqaro tajribadagi ilg'or metod va texnologiyalarni milliy ta'lim muhitiga moslashtirib joriy etish, mantiqiy masalalarning mazmunini o'quvchilarning kundalik hayoti va ijtimoiy tajribasi bilan bog'lash muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada o'quvchilarda nafaqat mantiqiy fikrlash, balki funksional savodxonlik va global kompetensiyalar ham izchil shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, mantiqiy masalalar ta'limida milliy va xalqaro yondashuvlar uyg'unligini ta'minlash ta'lim sifatini oshirish, xalqaro baholash dasturlarida yuqori natijalarga erishish hamda raqobatbardosh, intellektual salohiyatga ega shaxsni tarbiyalashning muhim omili hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda olib boriladigan ilmiy-tadqiqotlar va metodik izlanishlar ta'lim amaliyotini yanada takomillashtirish uchun mustahkam ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Polya G. How to Solve It: A New Aspect of Mathematical Method. – Princeton University Press, 1957.
3. Yo'ldoshev X. Boshlang'ich ta'limida mantiqiy masalalar va ularni o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2019.
4. UNESCO. Global Education Monitoring Report. – Paris: UNESCO Publishing, 2020.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.

